



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
rektori  
  
O.A.Ruziyev /  
“ 27 ” 10 2024 yil



**13.00.01- “PEDAGOGIKA NAZARIYASI. PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR  
TARIXI” IXTISOSLIGI BO'YICHA MUTAXASSISLIK FANIDAN  
TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI UCHUN**

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

**DENOV – 2024**

**Annotatsiya:**

Ushbu dastur 13.00.01- "Pedagogika nazariyasi, pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lib, unda talabgorlar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy talablar bayon qilingan.

**Tuzuvchi:** Allayarova Soliha Narzulloyevna - pedagogika fanlari doktori, dotsent, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti.

**Taqrizchilar:** Abdullayeva Shaxzoda Abdullaevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tillar fakulteti dekani.

Maxmudov Shokir Kamolovich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi.

Ushbu dastur va baholash mezonini "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2024-yil \_\_\_-oktabrdagi \_\_\_-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**  **A.To'raqulov**

Ushbu dastur va baholash mezonini Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti kengashining 2024-yil \_\_\_-oktabrdagi \_\_\_-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va institut o'quv uslubiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Fakultet dekani**  **Sh.Mahmudov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv uslubiy kengashining 2024-yil \_\_\_-oktabrdagi \_\_\_-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

**O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i**  **B.Pirimqulov**

Imtihon dasturi tasdiq va foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**  **S.N. Allayarov**

**KIRISH**

13.00.01- "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha kirish imtihon ilmiy-pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishning tarkibiy qismidir. 13.00.01- "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha tuzilgan kirish imtihoni dasturi mazmuni pedagogik bilimlarning nazariy-metodologik xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Imtihon topshiruvchi-tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, pedagogika fanining boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan bog'liq ilmiy metodologik masalalardan xabardor bo'lishi, shu bilan birga u o'z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to'g'ri xal etishda foydalanishi lozim.

Dasturning maqsadi va ahamiyati – tadqiqotchilarning Pedagogika nazariyasi va tarixi mazmuni, shakllanish bosqichlari, hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari, jamiyat hayotidagi o'rni va istiqboldagi ta'lim vazifalari haqida bilimlarini baholashdan iborat.

**Pedagogika fanining maqsad va vazifalari:**

- fuqarolarning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga xizmat qilish;
- tadqiqotchilarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish;
- barkamol avlodni va komil insonni shakllantirish muammolarini hal etish;
- umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmuni, milliy mafkurani shakllantirish
- uzluksiz ta'lim mazmunini takomillashtirish;
- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tafakkurini yuksaltirish
- pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish;
- buyuk allomalar al Farobiy, al Xorazmiy, al Farg'oniy, al Beruniy, ibn Sino, A.Navoiy, A.Avloniy, Yan Amos Komenskiy va boshqa mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid pedagogik qarashlarini hamda umumbashariy qadriyatlarda qayd etilgan umuminsoniy va ma'naviy-axloqiy tamoyillarni chuqur o'rganish;
- ta'lim-tarbiya nazariyasi va tarixidagi qonun, tamoyil, qoida, metod va usullarni maktab amaliy hayoti bilan bog'lash
- xorijiy mamlakatlaridagi ta'lim-tarbiya, ta'lim tizimlari hamda ta'limni boshqaruv jarayoniga doir ilg'or tajribalarni talabalarga chuqurroq o'rgatish va amaliyotda qo'llashni tashkil etish.

## DASTUR MAZMUNI

### O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi (2020 yil 23 sentabr)

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (11.09.2023 y.) da ta'limga oid masalalar. O'zbekistonda Oliy ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O'zbekistonda Xalq ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zR Prezidenti qarori mazmuni. Uzlüksiz ta'lim tizimi. Ta'lim va uning turlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim. Davlat va nodavlat ta'lim muassasalari. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Hozirgi davrda ta'limning holati: muammolar va yechimlar.

O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni. O'qituvchi-murabbiyning o'ziga xos fazilatlar: ilmiy dunyoqarashi va insonparvar, uning ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazari, barkamol avlodni shakllantirishda o'qituvchi-murabbiyning jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning kasbiy bilim va ko'nikmalari.

#### Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari: tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs shakllanishi va rivojlanishi.

#### Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi

Pedagogik antropologiya. Shaxs haqida tushuncha. Individ – shaxs, shaxsning o'ziga xosligi. Individ, shaxs, individuallik. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari. Shaxs rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari hamda jihatlari. Shaxs rivojlanishi va tarbiyasining o'zaro uyg'unligi.

#### Tarbiya jarayonining mohiyati, maqsad va vazifalari

Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni. Tarbiya jarayonining maqsadi. Tarbiya turlari. Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash tushunchalari. Tarbiya jarayonida tarbiyachi shaxsi.

Hozirgi demokratik jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan erkin shaxsni shakllantirish tarbiya maqsadi sifatida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy ildizlari haqida. Uzlüksiz tarbiya konsepsiyasi. Tarbiya vazifalari orqali shaxsni barkamol shakllantirish.

#### Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va prinsiplari

Tarbiya jarayoni tuzilishi hamda uning qonuniyatlari. Tarbiya qonuniyatlari tarbiya jarayonining mohiyati sifatida. Ijtimoiy sharoitlarga bog'liqligi qonuniyati. Inson tabiati bilan bog'liqligi qonuniyati. Tarbiya jarayonidagi sharoit bilan bog'liqligi qonuniyati. Tarbiya, ta'lim va shaxsni rivojlanish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi.

#### Tarbiya jarayonining metodlari va vositalari

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlarining maqsadi, prinsiplari, mazmuni va o'quvchilarning yosh, o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi.

O'zbek halqi pedagogikasida tarbiya metodlari. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi. Tarbiyada ibrat-namunaning tutgan o'rni. Ishontirish metodlari, hikoya, munozara sahbat, ma'ruza va boshqalar.

#### O'quvchilar jamoasi – yaxlit pedagogik jarayonining asosiy shakli

Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi sifatida.

Jamoa haqida tushuncha. Sharq mutafakkirlari jamoa va uning shaxsga ta'siri to'g'risida. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari. Bolalar va yoshlar jamoasining belgilari va tuzilishlari.

#### Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarni aqliy tarbiyasi

Ilmiy dunyoqarash, tafakkur va milliy mafkurani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayoni maqsadi sifatida. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Ilg'or ilmiy dunyoqarashning asosiy tarkibiy qismlari: ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Prezident Sh.Mirziyoev asarlarida yoshlarning aqliy kamoloti, tafakkur va ilmiy dunyoqarashiga qo'yilgan talablar.

#### Ma'naviy-ahloqiy tarbiya va uning mazmuni

Axlak - ijtimoiy ong, ta'sir ko'rsatish va tarbiyalash shakli sifatida. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar) ning ma'naviy-ahloqiy g'oyalari va ularni hozirgi kunda shaxsni ma'naviy-ahloqiy kamol toptirish va shakllantirishdagi ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida shaxsni ma'naviy-ahloqiy rivojlantirish va shakllantirishning asosiy prinsiplari: umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik.

#### Shaxsni shakllantirishda fuqarolik va huquqiy tarbiya

Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari. O'zRsi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev asarlarida yoshlarning fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasida davlat ramzlaridan foydalanish. Fuqarolik tarbiyasining umuminsoniy jihatlari: tinchlikni saqlash, ekologik muammolar, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorlik.

#### Mehnat va iqtisod tarbiyasi

Shaxsning kamol toptirish jarayonida mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat qilish ongining bosh vazifasi odamlarda ongli mehnatkash, mulkdorlik psixologiyasini shakllantirish.

#### Jismoniy tarbiya va nafas tarbiyasining mazmuni va metodlari

Shaxsning har tomonlama kamol topishida jismoniy tarbiyaning o'rni va vazifalari haqida. Jismoniy tarbiya konsepsiyasi. Sharq mutafakkirlari jismoniy tarbiya haqida. O'quvchi – yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kompleks dasturi.

#### Tarbiya jarayonini tashxis etish

Shaxsni tarbiyalanganligini tashxis etishning mazmuni. Tarbiyalanganlikni aniqlash mezonlari. Xususiy va umumiy mezonlar. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda tarbiyachi shaxsning o'ri. Shaxsda ahloqiy sifatlarning shakllanishi. Shaxsda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatning shakllanishi. Shaxsning xulqi.

#### **Oilada tarbiya asoslari**

Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oila tarbiyasining konseptual asoslari. Oila va uning tarbiyaviy vazifalari. Oilaning hozirgi davrdagi muammolari. Oila a'zolarining ahloqiy munosabatlari. Oila tarbiyasining huquqiy asoslari. "Oila" ilmiy-amaliy markazining vazifalari va faoliyatining mazmuni. "Maktab, oila va jamoatchilik" konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarida ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilikning aloqadorligi.

#### **Didaktika – ta'lim nazariyasi sifatida**

Ta'lim va o'qitish nazariyasi (didaktika) – pedagogika fanining tarkibiy qismi. Didaktikaning vazifalari, ahamiyati asosiy tushunchasi. Hozirgi davr didaktikasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari (konsepsiyasi). Uzlüksiz ta'lim konsepsiyasi. O'quv jarayonini texnologiyalashtirish. Uning ijobiy, salbiy tomonlari. Hozirgi davr pedagogikasida ta'lim paradigmalari an'anaviy – konserovativ, ilmiy, insonparvarlashgan (mantiqiy) ratsionalistik (bixevioristik), texnokratik, ezoterik.

#### **O'qitish jarayoni qonuniyatlari va prinsiplari**

O'qitish jarayoni mohiyati. O'qitish jarayonining qonuniyatlari. O'qitish jarayonining ijtimoiy sharoitlarga bog'liqligi qonuniyati. O'qitish jarayonining ichki va tashqi omillarga bog'liqligi qonuniyati. O'qitish jarayonining tarbiya va shaxsning rivojlanish jarayonlari bilan bog'liqligi.

#### **Ta'lim mazmuni. Davlat ta'lim standartlari**

Hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida ta'lim mazmuni. Jamiyatda har tomonlama rivojlangan erkin shaxsni shakllantirishda ta'limning o'ri. Ta'lim mazmunini belgilashning yetakchi g'oyalari. Ta'lim mazmunini shakllantirish prinsiplari. Ta'lim mazmunida milliy va jahon tajribalarini muvofiqlashtirish. Davlat ta'lim standartlari va ularni hayotga tadbiiq etish. Malaka talablari. O'quv reja. O'quv dasturlari. Sillabus va ishchi dastur mazmuni, tarkibiy qismlari.

#### **Ta'lim metodlari va vositalari**

Ta'lim metodlari va usullari haqida tushuncha. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining tavsifi. Sharq mutafakkirlari ta'lim metodlari haqida. Turli yosh guruhlari ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.

O'qitishning zamonaviy texnologiyalari: teskari sinf (flipped classroom), aralash ta'lim (blended learning), bumerang texnologiyasi. Ta'lim berishni loyihalash texnologiyasi. O'quv jarayonini modellashtirish. Pedagogik tadqiqotlar mazmunini modellashtirish.

#### **Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari**

Ta'lim turlari: ilustrativ (an'anaviy), muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning turlari. Ta'lim maqsadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'quv ishlarining turli shakllaridan foydalanish.

Ta'limning tashkil etishning an'anaviy shakli. Dars – o'qitishning asosiy tashkiliy shakli. Darsga qo'yiladigan talablar. Dars tiplari va tuzulishi. Hozirgi kunda darslarni modernizatsiyalash yo'llari.

#### **Ta'limni tashxis etish**

O'quvchilar bilimini tashxis etish didaktik tushuncha sifatida. O'quv jarayonida o'quvchilar bilimini hisobga olishning vazifalari. Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash samaradorligini psixologik-pedagogik shart-sharoitlari. Mazkur sharoitda o'quvchilar ruhiyatini hisobga olish. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar. O'quvchilar o'quv faoliyatini hisobga olish turlari, shakli va metodlari.

#### **Maxsus pedagogika asoslari**

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish haqida. Korreksion pedagogika pedagogika fanining bir sohasi sifatida.

Korreksion pedagogikaning tarkibiy qismlari va tuzilishi tizimi (surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, logopediya). Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Anomal (anatomik, fiziologik va ruhiy jihatdan nuqsoni bo'lgan) bolalar va ularning tavsifi.

#### **Pedagogik mahorat asoslari**

Pedagogik mahorat haqida tushuncha. O'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar. Pedagogik qobiliyat. Didaktik qobiliyat. Tashkilotchilik qobiliyati. Akademik qobiliyati. Perseptiv qobiliyati. Nutq qobiliyati. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Avtoritar qobiliyati. Kommunikativ qobiliyati. Pedagogik xayol. O'qituvchi shaxsi. Pedagogik nazokat.

#### **Boshqaruv pedagogikasi asoslari**

Ta'lim tizimini boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari.

Ta'lim muassasasida davlat-jamoat boshqaruvining psixologik-pedagogik asoslari. Vazirliklar, viloyat, tuman xalq maorifi bo'limlarining vazifalari. Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom. Ta'lim muassasasi Nizomi – rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

#### **Oliy ta'lim pedagogikasi va pedagogik tadqiqotlar mazmuni**

Pedagogik tadqiqotlar metodlari va metodologiyasi. Pedagogik tajriba sinov metodi. Ta'limga oid tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalari. Hozirgi zamon oliy ta'lim paradigmalari. Pedagogikaning istiqbollari. Pedagogik jarayonni tashkil qilish va boshqarishda raqamli texnologiyalar (HEMIS, kundalik.com, uchi.ru va xokazo). Mustaqil ta'lim olish. Umr davomida ta'lim olish (Life Long Education) tamoyili mazmuni. Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOK). Pedagogning shaxsiy rivojlanish konsepsiyasiga ega bo'lish zaruriyati.

Ilmiy-pedagog xodimning shaxsiy rivojlanish indikatorlari: xalqaro bazalardagi profilli, iqtibosliklari soni, xirshe indeksi. Pedagogning xorijiy yetakchi mutaxassislar bilan ilmiy hamkorligi. Pedagogning ilmiy-innovatsion faoliyati: grantlar, stajirovkalar va hokazo.

**13.00.01- "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligidan kirish imtihon savollari**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020 y.) va ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari.
2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlarida ta'lim va ilmiy tadqiqotavlod masalalari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'lim tizimini isloh qilish haqida.
5. O'zbekistonda oliy ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazmuni
6. O'zbekistonda xalq ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazmuni
7. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim sohasidagi vazifalar va ularni yechish chora-tadbirlari
8. Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zR Prezidenti qarori mazmuni
9. Barkamol shaxsni shakllantirish - tarbiyaning maqsadi sifatida.
10. Sharq mutafakkirlari barkamol inson tarbiyasi haqida.
11. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila, maktab va mahalla hamkorligi.
12. Ta'lim texnologiyalari mazmuni, turlari va vositalari
13. O'zbek xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari
14. Tarbiya mazmuni, tarkibi va rivojlanish omillari
15. Davlat ta'lim standarti, malaka talablari va o'quv rejalar mazmuni va ahamiyati
16. O'quv dasturlari mazmuni va tarkibiga qo'yiladigan umumiy talablar (namunaviy va ishchi dastur misolida)
17. Sillabus mazmuni va tarkibiga qo'yiladigan umumiy talablar
18. Ta'limni tashkil etishning kredit-modul tizimi mazmuni (Bolonya deklaratsiyasi)
19. O'quv adabiyotlari va ularga qo'yiladigan umumiy talablar
20. Ilmiy adabiyotlar va ularga qo'yiladigan umumiy talablar
21. Ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish shakllari
22. O'qitish metodlari: an'anaviy va noan'anaviy va vositalari
23. Muammoli ta'lim texnologiyasi (keys-stadi, kazusga asoslangan uslub)
24. Ta'lim berishda tabaqalashtirilgan va individualashtirilgan texnologiyalarning afzallik va kamchiliklari
25. Anomal bolalar va ularga ta'lim berish mexanizmlari
26. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'lim jarayonida ajdodlar merosidan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati haqida.
27. Xalq og'zaki ijodi namunalarida ta'lim-tarbiya metodlari va usullari.
28. Abu Rayxon Beruniyning pedagogik g'oyalari.
29. Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.
30. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan umumiy talablar
31. Ta'lim paradigmatlari
32. O'quvchilar bilimni baholash va nazorat qilish usullari.

33. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shaxri" asari.
34. A.Navoiyning "Maxbub ul-Qulub" asarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.
35. Jadidchilik xarakatining millat ravnaqidagi roli.
36. O'zbek xalq pedagogikasi - milliy tarbiya asosida.
37. "Qobusnoma" asarida farzand tarbiyasi.
38. O'zbek xalqining hikmat, matal, maqol, o'git, pand-nasihat va boshqa qadriyatlar.
39. Xadislarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.
40. Oilada farzand tarbiyasiga oid topshiriqlar.
41. Chet el ta'lim-tarbiya tizimining qiyosiy tahlili (istalgan davlatlar misolida)
42. Yan Amos Komenskiy – didaktika asoschisi.
43. Akad. Qori Niyoziy va Siddiq Rajabovlarning ijtimoiy pedagogik faoliyati.
44. Akad. I.Mo'minovning ma'rifiy pedagogik qarashlari.
45. Pedagogik tadqiqotlar metodlari va metodologiyasi.
46. Pedagogik tajriba-sinov metodini o'tkazish talablari
47. Ta'limga oid ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalari
48. Pedagogik jarayonni tashkil qilish va boshqarishda raqamli texnologiyalar (HEMIS, kundalik.com, uchi.ru va xokazo)
49. Mustaqil ta'lim – kredit-modul tizimi asosi sifatida
50. Umr davomida ta'lim olish (Life Long Education) tamoyili
51. Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOK)
52. Pedagogning shaxsiy rivojlanish konsepsiyasi mazmuni
53. Pedagogik mahoratning mazmuni va tarkibiy qismlari
54. Ta'limda 4K tamoyili (Critical Thinking, Creativity, Communication, Coordinating With Others)
55. Pedagogik kompetentlik mazmuni
56. Ta'limda P5BL tamoyili mazmuni
57. Pedagogning mutaxassislik malakalariga (hard skills) qo'yiladigan talablar
58. Pedagogning moslashuvchan malakalariga (soft skills) qo'yiladigan talablar
59. O'qitishning teskari sinf (flipped classroom) modeli
60. O'qitishning aralash ta'lim (blended learning) model
61. Darsni tashkil qilishning bumerang texnologiyasi
62. Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi
63. Kretiv fikrlashni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim metodlari va texnologiyalari
64. O'quv jarayoni va pedagogik faoltni modellashtirish talablari
65. Didaktikaning mazmuni, vazifalari, ahamiyati
66. Xozirgi davr didaktikasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari
67. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari
68. Ta'lim tamoyillari va ularning O'zbekiston Respublikasi ta'lim xujjatlarida aks etishi
69. Ta'lim sifati va unga ta'sir etuvchi omillar
70. Oliy ta'limda o'qituvchining ilmiy tadqiqot faoliyati va uning pedagogik jarayonga ta'siri
71. Oliy ta'limda talabalarning ilmiy faoliyati va uning o'quv jarayoniga ta'siri
72. Ilmiy va pedagogik faoliyat integratsiyasi: tuzilmasi, o'zaro dialektik munosabati va afzalliklari
73. Bilim, ko'nikma va malaka tushunchalari mazmuni va o'zaro aloqadorligi

74. Ilmiy bilim, dunyoqarashning mutaxassislik malakalarini shakllanishidagi o'rni
75. Masofaviy ta'lim: mazmuni, afzalligi, kamchiliklari
76. Maktabda dars shakllari: mazmuni va tarkibiy qismlari
77. Oliy ta'limda dars shakllari: mazmuni va tarkibiy qismlari
78. Darsning texnologik xaritasi mazmuni va ta'lim sifatini oshirishdagi afzalligi
79. Tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, mantiqiy fikrlashning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati
80. Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash tushunchalari
81. O'z-o'zini rivojlantirishda xorij tillarini bilish zarurati
82. Ilmiy-pedagog xodimning shaxsiy rivojlanish indikatorlari: xalqaro bazalardagi profili, iqtibosliklar soni, xirshe indeksi
83. Ilmiy-pedagog xodimning xorijiy yetakchi mutaxassislar bilan ilmiy hamkorligi
84. Pedagogning ilmiy-innovatsion faoliyati: grantlar, stajirovkalar va hokazo
85. O'zbekiston ta'lim tizimidagi muammolar va ularning yechimiga takliflar

#### Asosiy adabiyotlar:

- Xodjaev B.X., Umumiy pedagogika. Darslik.-Toshkent, «Sano-standart», 2017 y.434 b.
- Abdullaeva Sh., Asqarov A. Umumiy pedagogika. Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma. -T: Fan va axborot texnologiyalari, 2019. -280 b.
- Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika//darslik. -T.: 2016 y.-538 b.
- Umarova M. Teoriya i istoriya pedagogiki. Uchebnoe posobie. -T.: "Izdatelsko-poligraficheskii dom imeni Chulpana", 2018g., - 348 str.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
- 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. PF-60-son. 28.01.2022 y.
- 2022 — 2026 yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur. PF-134-son. 2022 ilil 11 may.
- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. PF-5712-son Farmoni. 2019 yil 29 aprel.
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 8 oktabr.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4623-son qarori. 2020 yil 27 fevral.
- Ataeva N. va boshqalar. Umumiy Pedagogika. Darslik//T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013 y., -862 b.
- Axrorova Z.B., Sodikov U.J., Allayarova S.N., Sadikova Sh.O., Shodmonov Sh.A. -Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma.-Toshkent.: «Mumtoz so'z», 2021 y. 331 b.
- Sodikov U., Taxirova M. Obinaya pedagogika. Uchebnoe posobie. - T.: "MUMTOZ SO'Z" 2021g., - 312 str/

- Slastenin V. I drugie. Pedagogika. Uchebnoe posobie. -M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya» 2013 g. - 576 str.
- Avliyakov N. Pedagogik texnologiyalar. -T.: "Fan va texnologiyalar", 2018 y.
- Mavlonova R.A.,Raxmonqulova N.X. va boshqalar. Umumiy pedagogika//darslik// Toshkent: 2016 y. 538 b.
- Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T: "Iqtisod-moliya", 2010 y. 424 b.
- Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. Pedagogika. 1-qism //darslik//. - Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,2010 y.400 b.
- Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. - T: "Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona", 2005y
- Подласий И.П. Педагогика. В 3-х частях. Учебник. - М, изд-во "Владос", 2008г.
- Голованова Н.Ф. Общая педагогика. Учебное пособие. - М.: "Реч", 2005г.
- Xudayqulov X. va boshqalar. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent. "Innovatsiya-Ziyo". 2020y. -314 b.
- Allayarova S. Talabalarni ilmiy tadqiqotga yo'naltirishning dolzarb masalalari. - T.: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. -160 b.
- Xudoyqulov X. Boboqulova D. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. - Toshkent "Innovatsiya-ziyo", 2021.
- Suyunov Sh. Saidova P. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma -Termiz. "IRFON-PRINT" nashriyoti, 2023.
- Suyunov Sh. N. Donayeva. Umumiy pedagogika va psixologiya. O'quv qo'llanma - Termiz. "IRFON-PRINT" nashriyoti, 2023.

#### Internet saytlari:

[www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)  
[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)  
[www.scopus.com](http://www.scopus.com)  
[www.dissercat.ru](http://www.dissercat.ru)  
[www.inlibrary.ru](http://www.inlibrary.ru)  
[www.psychology.uz](http://www.psychology.uz)  
[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

#### Baholash mezonlari

Dastur bo'yicha talabgorlar bilimni baholash mezonlari	
Nazorat shakli, maksimal baholari	Imtihon 100
Maksimal baho	Yozma, og'zaki
Shakli (og'zaki, yozma, test)	Belgilangan sanada
Muddati (haftalarda)	
<b>Savollarni baholash quyidagi mezon asosida amalga oshiriladi</b>	
<b>86-100- "a'lo"</b>	tadqiqotchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi,

	<p>javoblarini ilmiy asolay oladi, mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda, olib borayotgan pedagogik tadqiqotning mazmun mohiyati va o'ziga xosligini bilsa, tadqiqot asosnomasini shakllantira olsa - (a'lo) baho</p>
71-85- <i>"yaxshi"</i>	<p>tadqiqotchi mustaqil mushohada yuritadi, pedagogika fani bo'yicha olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda, olib borayotgan pedagogik tadqiqotning mazmun mohiyati tushunsa - (yaxshi) baho</p>
60-70- <i>"qoniqarli"</i>	<p>tadqiqotchi pedagogika fani bo'yicha egallagan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni qisman tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - (qoniqarli) baho</p>
0-59- <i>"qoniqarsiz"</i>	<p>tadqiqotchi fan dasturini, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas, pedagogik tadqiqot haqida ma'lumotga ega emas deb topilganda - (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.</p>